

**“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDAGI HIKOYATLARDA ADAB, TAVOZE,
VAFO, QANOAT KABI FAZILATLAR TARANNUMI**

Bozorova Gulruh

Oriental universiteti Samarqand kampusi o‘qituvchisi

Xaytaliyeva Surayyo

Oriental universiteti Samarqand kampusi Filologiya va tillarni

o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi 1-kurs talabasi

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 01.12.2025

Revised: 02.12.2025

Accepted: 03.12.2025

KALIT SO‘ZLAR:

*“Xamsa”, “Hayrat
ul-abror”, maqolat,
hikoyat, komil inson,
juvonmard, adab,
tavoze, vafo, qanoat,
karam, saxovat,
futuvvat, rostlik.*

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi hikoyatlarda komil insonga xos fazilatlar talqini yoritilgan. Mazkur doston o‘ziga xosligi bilan alohida ajralib turar ekan, undagi hikoyatlarni o‘rganish ham muhim ahamiyatga egadir. Xususan, dostonda Shoir yashab ijod etgan davrning ilg‘or falsafasi, axloqiy qadriyatlari va Shoirning ularga bo‘lgan munosabati, so‘z san‘atkori sifatidagi yondaShuvi o‘z ifodasini topgan.

Alisher Navoiy “Xamsa”sining birinchi dostoni “Hayrat ul-abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”) 1483-yilda yaratilgan. Doston 3988 baytdan iborat bo‘lib, 63 bob, 20 maqolat va 20 hikoyatdan tashkil topgan. Muqaddima qismi 21 bobdir.

Inson muhabbat bilan, inson ishq bilan tirik – Navoiyning e‘tiqodi Shu. Bu ulug‘ fazilatning birinchi belgisi esa vafodir. Vafo ishqning birinchi sharti, “yorlik shevasi”ning qoidasigina emas, poydevori hamdir. Shuning uchun bo‘lsa kerak, “Hayrat ul-abror” da ishq bobidan oldin vafo bobi keladi (“Sakkizinchi maqolat”). Albatta, vafo tuShunchasi ishq

tuShunchasiga nisbatan birmuncha torroq. Chunki vafo avvalo muhabbatda ko'rinadi, sinaladi. Chin muhabbat, odamlar o'rtasidagi do'stlik emas, vafosiz yor ham yor emas. Navoiy gapni mana Shu oddiy haqiqatdan, odamlar o'rtasidagi munosabatni belgilovchi vafoning ahamiyatini ta'kidlashdan boshlab, to yolg'izlikning dahshatlarini tasvirlashgacha borib yetadi. "Navoiy "vafo"ni, ... ishqni keng ma'noda tuShunadi, bu tuShunchalarni ikki jins o'rtasidagi munosabatlarga bog'lab qo'ymaydi", deb yozadi taniqli navoiyShunos A.Haytmetov. Shoirning kuyinib yozishiga qaraganda, inson zoti yolg'iz yasholmaydi, yorsiz, do'st mehribon kishisi bo'lmagan odamning ahvoli achinarli, og'ir:

Yorsiz el ohi g'am-andud erur,
Yonsa yig'och yolg'iz, ishi dud erur.
Toq kishi ayshi o'yin bil nigun,
Uyga qachon homil o'lur bir sutun?
Sinsa uqob egni uza bir qanot.
Tez uchar, lek anga birdam hayot.

Bir kishi yolg'iz daraxtday besamardir, chaqmoq toshni ham boshqa toshga urilganda o't chiqaradi, burgutning bir qanoti sinsa, qulab tushadi, bitta o'tindan olov yasab bo'lmaydi. Ana Shu qator misollarni keltirib, mutafakkir Shoir Hayotining abadiy qonuniyatlaridan biri juft bo'lib, jamiyat bo'lib yashashning fazilatini olqishlaydi va bunday juftlikda bir-biriga vofodorlik, sadoqat asos ekanini hikmat tili bilan ta'sirchan formada bayon etadi. Uning ta'kidlashicha, vafo dunyoning eng noyob gavhari ("So'rsa otin aqli safo javhari, oh chekib deki, vafo gavhari"), inson umrini bezaydigan, uni ulug'vor etadigan xislat. Vafo, karam – beg'araz, xolis bo'lishi kerak. Quyosh mavjudotga doimo nur sochar ekan, hech qachon tama uchun, mukofot uchun, manfaat yuzasidan qilmaydi bu ishni. Shuning uchun vafoli, karamli odam evaziga jaf ko'rganda ham bu yo'ldan qaytmasligi kerak – "daraxt qancha ko'p hosil bog'lasa, Shuncha unga tosh otadilar, sham uyning ichi va tashqarisini yoritadi, ammo uy egasi har zamon uning boshini kesib turadi". mehrga – nomehribonlik bilan, jaf bilan javob berish charxi davron shevalaridir. Chunki dunyo Shunday qurilgan. Lekin yaxshi insonlar bundan ibrat olib, bu "kajraftor"likka taqlid qilmay vafoga vafo bilan javob qaytarishga intiladilar [Muhiddinov, 161-162].

Navoiyda "vafo" tushunchasining mazmuni kengroq, u kayxoniy ishq tuShunchasi bilan bog'lanib ketgan, falsafiy ma'no kasb etgan. Xusrav Dehlaviyda esa bu hol ko'zga chalinmaydi. Hindistonlik Shoir ko'proq odob-axloq doirasida fikr yuritishni ma'qul ko'rgan. Ammo har ikki shoirda ham ishq-vafo, sadoqat inson va uning kamoloti yo'lidagi

sifatlar qatorida ulug‘langani, insonparvarlik g‘oyasi targ‘ib etilgani ma‘lum bo‘lib turibdi [Muhiddinov, 166].

Navoiy chin, sadoqatli do‘stlikni ulug‘laydi:

Jumla jahon shohlig‘idin ori bor

Kimki, gadodur dog‘i bir yori bor.

Ya‘ni vafoli bir do‘st, yori bor jahon shohligidan ko‘ra yuqoriroq darajaga ega bo‘lgan kishidir. Qatliom paytida ikki do‘st jallod qo‘liga tushdilar. Shunda ularning har biri jalloddan, oldin meni o‘ldir, tokim men o‘lguncha do‘stim tirik bo‘lsin, deb yalinar edilar. Shu vaqt qatli omning to‘xtatilmog‘i to‘g‘risida buyruq keldi.

Bir-biriga kechdi alar jonidin,

Shoh dag‘i kechti ulus qonidin [Qayumov, 94].

“Hayrat ul-abror”dagi maqolat va hikoyatlar bir-biriga hamohang tarzda keltirilgan. Chunonchi, oltinchi maqolat adab mavzusiga bag‘ishlangandir. Sarlavhadayoq Navoiy nima xususida gap borishini qayd etib o‘tadi, chunonchi: “Adab dab‘idakim, kichiklarga mo‘jibi saodatmandlig‘ va ulug‘lar boisi sarbalandlig‘ durur va tavoze vasfidakim, “dol”dek qaddini xam qilg‘on qadamin davlat farqiga qo‘yar va hayo ziyosidakim, har kishi kirsah rahmat yog‘inlari birla serob bo‘lur”.

Mazmuni: “Adab rasmi haqidaki, kichiklarning baxtiyorligi sabab va kattalarning boshining baland bo‘lishiga boisdur. Tavoze ta‘rifidakim, qaddini “dol” harfiday egib yurgan odamning qadamini davlat boshiga chiqaradi va hayo nuri haqidakim, har kim bu nurga cho‘milsa, rahmat yomg‘iri bilan serob bo‘ladi”. Demak, Navoiy adabni saodatmandlik – baxtiyorlik kaliti, eng ko‘p qadrlanadigan insoniy fazilat deb hisoblagan va hayo bilan xushtavozelikni odobning asosiy shartlaridan deb bilgan. Shunisi borki, Navoiy bu xislatlarni “talab uyida nishast aylagan”, ya‘ni ma‘rifatga talabgor odamlar uchun zarur deb hisoblaydi. Bu xil odamlar o‘zini gard – g‘uborday arziyas deb, kibr – manmanlikning “ko‘zini ko‘r etib” yurgan, riyozatlar chekkan, nafsu havo, hirs-u ta‘ma o‘tini o‘chirgan “revu riy xirmanini kuydirgan”, ya‘ni ko‘ngilda qing‘ir fikrlar, allamchilik, yolg‘on-firib uyi bo‘lmagan sidqu sadoqatda sobit kishilardirlar. Shoirning yozishicha, ana shu fazilatni o‘zida shakllantirgan odamning odobi ham go‘zal bo‘lishi kerak. Odob esa tavozedan boshlanadi. Xushtavoze odam kamol topadi, qadrlanadi. Navoiy:

Elga sharaf bo‘lmadi johu nasab,

Lek sharaf keldi hayovu adab.

deb yozadi. Buning ma'nosi shuki odamni mansab va naslu nasab emas, balki hayo va adab ulug'laydi, el ko'ziga sharaflil qilib ko'rsatadi.

Bo'lmas adabsiz kishilar arjmand,

Past etar ul xaylni charxi baland.

Navoiy saroy odobi, shohlar, sultonlar xizmatidagi rasm-rusm va qoida-qonunlar haqida ham fikr bildirgan. Bu yerda muhim ijtimoiy qarashlar ham keltirilgan. Mabodo taqdir seni shoh xizmatiga musharraf etsa, deb davom ettirgan donishmand adibimiz, u yerdagi boylik – bezaklarning ko'pligi, noz-ne'matning bisyorligiga mahliyo bo'lma, chunki huzuri azobga, no'shi neshga aylanishi mumkin:

Marhami zimnida erur reshlar,

No'shi ichinda tikilur neshlar.

Gul ko'runur yonida yuz xori bor.

Bor esa bir aysh, ming ozori bor.

Telbaga o't shakli guliston erur,

Tushsa xalosi qachon imkon erur.

Navoiyning o'zaro qofiyali nasriy gaplari xalq maqoliday ma'noli va esda qoladigan.

Navoiy, Shunday qilib, odobli, xushtavoze odamlar ko'pchilikning hurmatiga sazovordirlar, ulardan yaxshi do'st, bama'ni ulfatlar chiqadi, deb ishontiradi. Odobli odamlar dushmanlarni ham rom qila olishi mumkin, dushman ko'ngliga ham yo'l topa oladi. Tavozeli kishining takror muomalalari uyatsiz, hayosiz mutakabbirlarni ham insofga keltirib, yaxshi yo'lga qaytarish mumkin. Xushtavoze kishilar birovga bir diram bermay, xursand qila oladilar, ularning shirin tili dilga quvvat, nozik harakati ruhga madad. "Adab kichik yoshlig'larni ulug'lar duosiga sazovor etar va ul duo barakati bila umrdin barxurdor (bahramand)". Odobli bola kishi ko'ziga ulug'sifat ko'rinadi, mehru muhabbatingiz ortadi. Bunday yoshlarga behuda, yomon ko'z bilan qarashdan odamlar o'zlarini saqlaydilar. Odobning muhabbatni paydo bo'lishi va taraqqiy topishida ahamiyati katta, - deydi hhoir. Chunki muhabbat – o'zaro Hurmat asosida vujudga keladi. Barcha oshiq-ma'shuqlarning qissasi bunga misol. Layli va Majnun orasidagi, Vomiq bilan Uzro orasidagi, Farhod va Shirin orasidagi muhabbatni olib ko'ring, ularning nazokatli muomalasi, muloqatlardagi xushtavozelik yuz chandon ishqni kuchaytirmadimi? Shoirning bu misollaridan Shuni anglab olamizki, odobni, tavozeni keng ma'noda tushungan, uni inson zotining hayot tarzi, xulq-raftoriga asos qilib ko'rsatgan [Muhiddinov, 182 -b.].

“Hayrat ul-abror”da odob ta’lim-tarbiyaga oid o’gitlar ko’p. Ular komil insonga xos xususiyatlardir.

Tamaga qarshi kurash Alisher Navoiyning ta’lim-tarbiya ishidagi asosiy prinsiplaridan edi. Bu hol “Hayrat ul-abror”da qayta-qayta uchraydi. Tama kishini xorlikka olib keladi. Tamagir podshoh gado singaridir, qanoatli darvesh esa podshoh kabi yuksaklikda turadi.

Kulbada darveshki qonedurur,
Foyiq erur shohgaki tomedurur.
Chunki tama bo’ldi gadolar ishi,
Bilki, gadodur tama qilgan kishi.

Ayni zamonda shoir qanoatni ulug’laydi. Asosiy boylik qanoatdir.

Kimgaki ish bo’ldi qanoat fani,
Bilki ani qildi qanoat g’ani.
Ganju tajammulni g’ino bilmagil,
Balki g’ino ganji qanoatni bil.

Qanoatda Anqo qushi mashhurdir. Shu tufayli u qushlar shohi hisoblanadi. Hudhud esa garchi boshida toj bo’lsa-da, tamagirliqi tufayli oddiy xabarchi bo’lganicha qolgan.

Alisher Navoiy kishi zeb-u tamadan qancha yiroq bo’lsa, shuncha osoyishta yashashini uqtiradi. Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy va Alisher Navoiy qanoatni insonning muhim ijobiy xislati hisoblab, bu haqda ko’p qimmatli fikr-larni aytib o’tganlar. Inson o’zini tiyishi, taqvodor, halol bo’lishi kerak. Qanoatga chaqirishning sotsial sabablari bor edi. Sulton va uning atrofidagi a’yonlar, amirlar, boylar, ruhoniylar boylik, mol-mulk uchun talashib-tortishib, qabih ishlarga qo’l urardilar, talonchilik, zulmu sitam, o’z nafsini tiya bilmaslik oqibati deb qaralgan. Agar hamma odam faqat o’z yashashiga lozim bo’ladigan narsa bilan qanoatlansa, qolganini boshqa muhtojlarga bo’lib bersa, tenglik, birodarlik qaror topadi, deb o’ylagan gumanist shoirlar. Qanoat zaruriy axloqiy kategoriya sifatida targ’ib etilib, u halollik, taqvo, karam, saxovat tushunchalari bilan birga olib qaralgan [Muhiddinov, 186-187].

Pand-o’git mavzusidagi hikoyatlar “Hayrat ul-abror”da alohida o’rin tutadi. Ularning biri yettinchi maqolat ortidan keladi. Unda qanoatning foydasi, tamagirlikning zarari to’g’risida so’z boradi. Bu hikoyatning sarlavhasi bunday: “qoni juvonmard ila tomi jahongard hamrohlig’i va biri farog’at ganji hirsidin mazallat ranjig’a qolib, birining qanoat ranji chekardin farog’at ganjig’a yetkani” .

Ma'nosi: Mard qanoatli kishi (qoni) bilan jahon kezuvchi tamagir, g'arazgo'y kishi (tomi) birga yo'l bosar edilar. Ulardan biri farog'at xazinasini topmoq hirsiga tushdi va xorlik azobiga duch keldi. Boshqa biri esa qanoat azobini chekdiyu farog'at xazinasiga erishdi.

Bu sarlavhada ajoyib so'z o'yinlari bor. Farog'at ganji – mazallat ranji, qanoat ranji – farog'at ganji. Hamrohlardan biri (tomi) farog'at ganjiga intildi. Xomtamalik uni xorlik (mazallat) ranjiga uchratdi. Qanoat ranjiga chidagan, ya'ni boriga shukr qilib qanoatli bo'lgan juvonmard oxiri farog'at ganjiga ega bo'ldi. Demak, kishini tama xor qiladi, qanoat esa kishini yuksaklikka ko'taradi.

Alisher Navoiy keyingi maqolatlarda ham birinchi maqolatda keltirilgan bosh mavzu – komil insonga xos sifatlar bayonini davom ettiradi.

“Hayrat ul-abror” dostonida xotima ham o'ziga xos o'ringa ega. Dostonning 62-63-boblari Hazrat Navoiyning xulosa va yakuniy fikrlarini o'z ichiga oladi.

“Hayrat ul-abror” dostonidagi masalalar bevosita “Xamsa”ning keyingi dostonlarida ham davom etadi, xususan, komil insonga xos adab, qanoat, karam va saxovat, futuvvat, rostlik, vafo kabi xislatlar bilan bog'liq masalalar “Farhod va Shirin” dostoni, “Sab'ayi sayyor” tarkibidagi hikoyatlar, “Saddi Iskandariy” dostonlarida yangicha talqin topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vohidov R.J., Mahmudov M. Ma'naviyat – komillik saodati. – Toshkent: Ma'naviyat, 1997.
2. Muhiddinov M. Adabiy an'ana va ijodiy o'ziga xoslik. – Toshkent, 1990.
3. Muhiddinov M. Komil inson-adabiyot ideali. – T.: Ma'naviyat. 2005.
4. Navoiy Alisher. Hayrat ul- abror. MAT. 20 jildlik – T.: Fan, 1991.